SO‘Z MA’NOSINI KONTEKST ASOSIDA ANIQLASHNING LINGVISTIK ASOSLARI

Norbekova Bahora

ToshDO‘TAU Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Anonntatsiya. Mazkur maqolada so‘z ma’nosini kontekst asosida aniqlashning lingvistik asoslari yoritiladi. So‘z ma’nosining nominativ, signifikativ va konnotativ jihatlari, shuningdek, bosh va hosila ma’nolar o‘rtasidagi munosabatlar ko‘rib chiqiladi. Lingvistik, ekstralingvistik, madaniy va intertekstual kontekst turlarining so‘z ma’nosini aniqlashdagi roli ochib beriladi. Ko‘pma’nolilikni aniqlashda sinonimik va antonimik testlar asosida misollar orqali tahlil olib boriladi. Maqolada kontekstning semantik aniqlik va pragmatik yo‘naltirishdagi vazifalari asoslab berilib, so‘z ma’nosining kontekstual modulyatsiyasi masalasi yoritiladi. Shuningdek, kontekstga asoslangan so‘z ma’nosini aniqlashning zamonaviy yo‘nalishlari, xususan, Word Sense Disambiguation (WSD) muammosi va uning sun’iy intellekt hamda tabiiy tilni qayta ishlash tizimlaridagi ahamiyati qayd etiladi. Tadqiqot natijalari tilshunoslik, tarjimashunoslik va kompyuter lingvistikasi uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: So‘z ma’nosi, Kontekst, Lingvistik, ekstralingvistik, madaniy va intertekstual kontekst, Kontekstual modulyatsiya, Sinonimik va antonimik test, WSD

Abstract. This article elucidates the linguistic foundations of determining word meaning based on context. The nominative, significative, and connotative aspects of word meaning, as well as the relationships between primary and derived meanings, are examined. The roles of linguistic, extralinguistic, cultural, and intertextual types of context in identifying word meaning are revealed. In determining polysemy, analysis is conducted through examples based on synonymic and antonymic tests. The article substantiates the functions of context in semantic precision and pragmatic orientation and addresses the issue of contextual modulation of word meaning. In addition, modern approaches to context-based word meaning identification are discussed, particularly the problem of Word Sense Disambiguation (WSD) and its significance in artificial intelligence and natural language processing systems. The research results have theoretical and practical significance for linguistics, translation studies, and computational linguistics.

Keywords: word meaning, context, linguistic, extralinguistic, cultural and intertextual context, contextual modulation, synonymic and antonymic test, WSD.

Аннотация. В данной статье освещаются лингвистические основы определения значения слова на основе контекста. Рассматриваются

ISSN 3030-3907

номинативные, сигнификативные и коннотативные аспекты значения слова, а также соотношения между основным и производными значениями. Раскрывается роль лингвистического, экстралингвистического, культурного и интертекстуального видов контекста в определении значения слова. При выявлении многозначности проводится анализ на основе примеров с использованием синонимических и антонимических тестов. В статье обосновываются функции контекста в обеспечении семантической точности и прагматической направленности, а также рассматривается проблема контекстуальной модуляции значения слова. Кроме того, отмечаются современные направления определения значения слова на основе контекста, в частности проблема разрешения неоднозначности значения слова (Word Sense Disambiguation, WSD) и её значение в системах искусственного интеллекта и обработки естественного языка. Результаты исследования имеют теоретическое и практическое значение для лингвистики, переводоведения и компьютерной лингвистики.

Ключевые слова: значение слова, контекст, лингвистический, экстралингвистический, культурный и интертекстуальный контекст, контекстуальная модуляция, синонимический и антонимический тест, WSD.

KIRISH

Til – inson tafakkurining asosiy vositasi bo‘lib, unda so‘z markaziy birlik hisoblanadi. So‘zning ma’nosi esa doimiy, o‘zgarmas hodisa emas, balki nutq jarayonida, kontekst ta’sirida aniqlanadigan murakkab lingvistik birlikdir. Zamonaviy tilshunoslikda so‘z ma’nosini faqat lug‘aviy izoh bilan chegaralab bo‘lmasligi, uning real nutqda kontekst bilan uzviy bog‘liqligi tobora yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, ko‘pma’nolilik, omonimiya, metaforik va metonimik ko‘chishlar natijasida hosil bo‘ladigan so‘z ma’nosini to‘g‘ri anglashda kontekstsiz asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois kontekst masalasi semantika, pragmatika, diskurs tahlili va kognitiv tilshunoslikning muhim tadqiqot obyektiga aylangan. Chunki so‘z ma’nosining shakllanishi nafaqat til tizimi, balki nutq vaziyati, kommunikativ maqsad, ijtimoiy-madaniy omillar va insonning bilish jarayoni bilan chambarchas bog‘liqdir. Kontekst so‘zning qaysi ma’nosi faollashishini belgilash bilan birga, uning baholovchi, emotsional va uslubiy jihatlarini ham yuzaga chiqaradi.

Shu nuqtayi nazardan, so‘z ma’nosini kontekst asosida aniqlash masalasi nafaqat nazariy tilshunoslik uchun, balki tarjimashunoslik, matn tahlili, sun’iy intellekt va tabiiy tilni avtomatik qayta ishlash kabi amaliy sohalar uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ko‘pma’noli so‘zlarning aniq ma’nosini

ISSN 3030-3907

aniqlash muammosi mashina tarjimasi va Word Sense Disambiguation (WSD) jarayonlarida muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada so‘z ma’nosini kontekst asosida aniqlashning lingvistik asoslari kompleks tarzda tahlil qilinadi, kontekst tushunchasi va uning turlari yoritiladi hamda ko‘pma’nolilikni kontekst orqali aniqlash mexanizmlari misollar asosida ochib beriladi.

ASOSIY QISM

So‘z ma’nosi tilshunoslikning leksikologiya va semantika bo‘limlarida o‘rganiladigan eng murakkab va ko‘p qirrali tushunchalardan biridir. So‘z til birligi sifatida nafaqat tovush qobig‘iga, balki mazmunga ham ega bo‘ladi. Aynan mazmun – so‘z ma’nosi tilning tafakkur va borliq bilan bog‘lanishini ta’minlaydi. Mashhur ingliz tilshunosi J. Lyons so‘z ma’nosini quyidagicha ta’riflaydi: “So‘z ma’nosi – til birligining obyektiv borliq bilan aloqasini ifodalovchi semantik hodisadir”. Bu ta’rifdan ko‘rinadiki, so‘z ma’nosi real voqelik, inson tafakkuri va til tizimi o‘rtasidagi murakkab munosabat mahsulidir.

A.A. Reformatskiy so‘z ma’nosi faqat til tizimi doirasida emas, balki nutq jarayonida to‘liq namoyon bo‘lishi va bu kontekst tushunchasining so‘z ma’nosini aniqlashdagi ahamiyatini yanada oshirishini ta’kidlab o‘tgan.

So‘z ma'nosi odatda bir predmet, belgi, harakatning nomini boshqa bir predmet, belgi, harakatga ko‘chirish yo‘li bilan rivojlanadi. Bunday ko‘chirishning tabiatini, mavqeini har bir tilning o‘zidagi semantik qonuniyatlar belgilaydi. Ko‘chirishlar asosan quyidagilar: metafora yo‘li bilan ko‘chirish, funksional ko‘chirish, metonimiya yo‘li bilan ko‘chirish, sinekdoxa yo‘li bilan ko‘chirish. Ko‘chirish qorishiq holda (metafora-funksional, metafora-metonimiya, metonimiya-funksional tarzida) ham uchraydi. Turlicha ko‘chirishlar natijasida leksik ma'noda ikki xil hodisa yuz beradi: 1) ma'noning hajmi o‘zgaradi, 2) ma'noning miqdori o‘zgaradi.

O‘zbek tilshunosligida so‘z ma'nolari bosh ma'no va hosila ma'no, to‘g‘ri ma'no va ko‘chma ma'no, nominativ ma'no va figural ma'no kabi bir necha nuqtayi nazardan tasnif qilinadi. Aslini olganda, so‘zning bosh ma’nosi, to‘g‘ri ma’nosi, nominativ ma’nosi (bir leksik ma'noning yuzaga kelishi uchun asos bo‘lgan ma'no ma'no) va hosila, ko‘chma, figural ma’nolari (bosh ma'noning taraqqiyoti bilan yuzaga kelgan leksik ma'no) bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatadi. Faqat etimologik jihatdan ayrim bosh ma’nolar aslida hosila ma’no bo‘lishi mumkin. Ma’nolarning zanjirsimon bog‘lanishida ham 1-hosila ma’no 2-hosila ma’no uchun majozan bosh ma’no bo‘lib xizmat qiladi.

Umumiy jahon tilshunosligida esa so‘z ma’nosi uch asosiy qismdan tashkil topishi aytib o‘tiladi:

ISSN 3030-3907

1. Nominativ (atash) ma’no – so‘zning obyektiv borliqdagi predmet, hodisa, belgi yoki harakatni nomlash (atash) vazifasi bilan bog‘liq ma’nosidir. Bu so‘zning asosiy, lug‘aviy ma’nosi hisoblanadi va barcha so‘zlarda mavjud bo‘ladi. Masalan, *daraxt* so‘zining nominativ (atash) ma’nosi (Tana qo‘yib, shox va novdalar chiqarib, tomir otib o‘sadigan ko‘p yillik o‘simlik) hisoblanadi. 2. Signifikativ ma’no – so‘zning tushuncha (kontsept) bilan bog‘liq jihatidir. Bu ma’no orqali so‘z predmetning yakka nusxasini emas, balki umumlashtirilgan belgilari majmuasini ifodalaydi. Bu ma’no tafakkur bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi va mantiqiy umumlashtirish natijasi hisoblanadi. Yuqoridagi *daraxt* so‘zining mevali, mevasiz, manzrali, terak, chinor kabi alohida turini emas balki umumiy ildiz, tana, shox,barglardan iborat ko‘p yillik o‘simlik ma’nosi signifikativ ma’nodir. 3.Konnotativ ma’no – so‘zning qo‘shimcha, subyektiv, baholovchi yoki emotsional-ekspressiv ma’nosidir.Bu ma’no amisha bo‘lavermaydi, nutqiy vaziyatga bog‘liq holda uslubiy rang-baranglik yaratadi.

Yuqorida so‘z ma’nosi va uning turlari haqida ma’lumotlar berildi. Bir so‘zning aynan qaysi ma’noda qo‘llanilayotgani faqatagina kontekst asosida yanada oydinlashadi. Quyida kontekst tushunchasi va uning turlari haqida ayrim mulohazalarni ko‘rib o‘tamiz.

Kontekst – *lotincha contextus* so‘zidan kelib chiqqan (“jips, bog‘lanish, qo‘shilish”). Og‘zaki yoki yozma nutqning atrofidagi tugal qismi, ya’ni atrofdagi so‘zlar yoki iboralar natijasida har bir so‘zning ma’nosi aniqroq bo‘ladi. Til birligidan oldin va keyin keladigan nutq bo‘lagi; til birligining lingvistik, sharoitdan kelib chiqqan, ijtimoiy va madaniy muhitdan kelib chiqqan holati. Kontekst turlari va izohi 1-jadvalda yoritilgan.

1-jadval.

Kontekst turlari va izohi

T/r	Kontekst turi	Izohi
1	Lingvistik kontekst	So‘zning ma’lum bir individual ma’nosini aniqlash (aktualizatsiya qilish) uchun zarur bo‘lgan eng kichik nutq bo‘lagidir.
2	Ekstralingvistik (noverbal) kontekst	Ekstralingvistik kontekst — bu nutq vaziyati, ya’ni so‘zlovchi va tinglovchi (yoshi, jinsi, ijtimoiy mavqei, hissiy holati) va vaziyat (joy, vaqt, sharoit).
3	Madaniy kontekst	Til va nutq ma’nosini shakllantiruvchi jamiyatning umumiy madaniy-tarixiy bilimlari, urf-odatlari, qadriyatlari.

ISSN 3030-3907

4	Intertekstual kontekst	Matnning boshqa matnlar bilan aloqasi — o‘qilgan yoki eshitilgan oldingi matnlarga ishoralar orqali ma’no kengayadi.

Leksik semantikaning asosiy muammolaridan biri – bitta so‘z shaklining (grammatik o‘zgarishlarsiz) turli xil semantik qo‘llanishlari mavjudligidir. So‘zning aynan qaysi ma’noda qo‘llanilayotgani esa faqat kontekst asosida namoyon bo‘ladi. Kontekst matnni anglash jarayonida ikki asosiy funksiyani bajaradi: a) semantik aniqlik berish – so‘z va gaplarning to‘g‘ri talqin etilishini ta’minlaydi; b) pragmatik yo‘naltirish – muallifning maqsadini, tinglovchining qabul qilish imkoniyatini va kommunikatsiya vaziyatini belgilaydi. Shu bois matnni tilshunoslik doirasida emas, balki kontekstual jarayon sifatida ko‘rib chiqish zarur deb hisoblanadi.

So‘z shaklining semantik ma’nolari turli kontekstlar ta’sirida ikki asosiy yo‘l bilan o‘zgarishi mumkin. Birinchidan, bitta ma’no cheksiz ko‘p yo‘llar bilan modulyatsiyalanishi mumkin: har bir kontekst ayrim semantik belgilarni kuchaytiradi, boshqalarini esa pasaytiradi yoki bostiradi. Ikkinchi turdagi semantik o‘zgarish esa turli kontekstlar tomonidan ko‘p ma’noli so‘z shaklining turli ma’nolarini faollashtirish bilan bog‘liq. Bu holat kontekstual tanlash (ma’nolarning tanlanishi) deb ataladi. Odatda bu ikki turdagi o‘zgaruvchanlik birgalikda ishlaydi: ya’ni kontekst tomonidan tanlangan ma’no, o‘sha kontekstning o‘zi tomonidan yana modulyatsiyalanadi.

1. Doktor bizga dori yozib berdi.
2. Homilador doktor bizga dori yozib berdi.

Bu gaplarda *doktor* so‘zi umumiy ma’noda ishlatilgan. Ayol bo‘lishi kutiladi, lekin majburiy emas. Erkak hamshira ham nazariy jihatdan mumkin. Ya’ni, jins belgisi bu yerda kuchsiz. (*Homilador doktor bizga dori yozib berdi*)gapida esa (homilador) so‘zi kontekstni o‘zgartiradi. Ayol belgisi majburiy bo‘lib qoladi. Erkak belgisi esa imkonsiz holatga tushadi. Bu misolda leksik birlik (doktor) o‘zgarmaydi, lekin kontekst uning ma’nosidagi ayrim belgilarni kuchaytiradi va pasaytiradi. Bu hodisa ma’no modulyatsiyasi deb ataladi, ya’ni yangi ma’no tanlanmadi, balki mavjud ma’no kontekst orqali o‘zgardi.

So‘zning lug‘aviy (sistemaviy) ma’nolari bilan uning kontekstual qo‘llanishlari farqlanadi. (Qarang: 2-jadval)

2-jadval.

Lug‘aviy va kontekstual ma’no faqrlari

Lug‘aviy ma’no	Kontekstual ma’no
Lug‘atda mavjud	Nutqda yuzaga chiqadi

ISSN 3030-3907

Barqaror	O‘zgaruvchan
Bashorat qilinadi	Bashorat qilinmaydi
Umumiy	Shaxsiy

Bir so‘z shaklining turli ma’nolarga ega bo‘lishi omonimiya,polisemiya kabi holatlarni yuzaga chiqaradi. Va bunda polisemiya har bir tilda salmoqli o‘rin egallovchi til hodisasi hisoblanadi. Quyida ko‘pma’nolilikni kontekst asosida aniqlash borasidagi ayrim mulohazalarni aytib o‘tamiz.

Agar so‘zning bir kontekstdagi qo‘llanishiga sinonim bo‘la oladigan so‘z, boshqa kontekstdagi ayni shakldagi qo‘llanishiga sinonim bo‘la olmasa – bu ko‘pma’nolilik belgisidir. Masalan, a) Karvonsiz – yo‘l xarob, oqsoqolsiz – el xarob (qarovsiz qolgan, buzilgan, vayron; noobod) va b) Nimasi zotli, o‘zimizning jaydari qo‘ylardan ham xarob-ku! (ozg‘in, oriq, nimjon; ko‘rimsiz). Bunda a gapdagi xarob o‘rnida *vayron, noobod* kabi sinonimlarni qo‘llay olamiz, ammo b gap uchun bu sinonimlar qo‘llanilmaydi; b gapdagi xarob so‘zi o‘rnida *ozg‘in, oriq, nimjon; ko‘rimsiz* kabi sinonimlarini ishlatishimiz mumkin, lekin a gap uchun ishlatolmaymiz. Demak, bir kontekstdagi sinonim ikkinchisida ishlamaydi**,** xarob – ko‘pma’noli so‘z.


Bir kontekstdagi zid ma’no ikkinchi kontekstda zidlik munosabatini hosil qila olmasa ham so‘z ko‘pma’noli bo‘ladi. 1. Tirnog‘imni, tishimni doim toza tutaman (kir, chang, ifloslik va shu kabilardan xoli (xoli qilingan), ozoda, pokiza); 2. Yigit-qizlar xolaning gaplariga toza kulishdi (juda ham, rosa). Bunda 1-gapdagi toza so ‘ziga kir, islos kabilar antonym bo‘la oladi, biroq 2-gapdagi ayni shu so‘z uchun bular qarama-qarashlikni yuzaga keltira olmaydi. Demak *toza* so‘zi ham ko‘pma’nolidir.

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, so‘zlarning aniq ma’nosi kontekst asosida oydinlashadi. Kontekst so‘zning leksik ma’nosini aniqlashda eng asosiy qism bo‘lib, u matndagi qo‘shni so‘zlar, sintaktik qurilish va ko‘pincha pragmatik omillar bilan chambarchas bog‘liqdir bo‘ladi. Kontekst yordamida polisemik so‘zning ma’nosi aniqlanadi – ya’ni so‘zning turli ma’nolari kontekst elementlariga qarab farqlanadi. Bu, masalan, shaxs, joy yoki harakat ma’nosidagi farqlarni aniqlashda muhimdir. Kontekst asosida so‘z ma’nosini aniqlash mashina tarjimasi va tilni avtomatik qayta ishlash tizimlarida aniqlikni oshiradi. Axborot qidiruvi va matnni tahlil qilishda kontekstni hisobga olish samaradorlikni yaxshilaydi. Sun’iy intellekt tizimlarida tilning semantik tuzilishini chuqurroq tahlil qiladi.

So‘z ma’nosini kontekst bilan bog‘lash tilning semantikasini tarkibiy tahlil qilishni talab etadi. Leksik semantika kontekstning rolini aniqlashda muhim nazariy poydevor hisoblanadi. Zamonaviy NLP sohasida ko ‘p ma’noli so‘zlar ma’nosini kontekst asosida aniqlash WSD (Word Sense Disambiguation) deb

ISSN 3030-3907

nomlanadi. Bu jarayonda turli yondashuvlar: bilimga asoslangan, statistik-mashinani o‘rganish, neyron tarmoqlar bilan ishlash kabi usullar qo‘llaniladi. So‘nggi yillarda WSD usullari quyidagicha rivojlandi. (Qarang. 3-rasm)



3-rasm. WSD yondashuvlari

Xulosa

So‘z ma’nosini kontekst asosida aniqlash tilshunoslikning fundamental muammolaridan biridir. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, so‘z ma’nosi lug‘aviy birlik sifatida emas, balki nutq jarayonida, aniq kontekst doirasida to‘liq namoyon bo‘ladi. Kontekst leksik, grammatik, pragmatik va kognitiv omillarni o‘zida mujassamlashtirgan murakkab tizimdir. So‘z ma’nosining nominativ, signifikativ va konnotativ jihatlari o‘zaro uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘lishi, ularning aniq qaysi biri faollashishi esa bevosita kontekstga bog‘liqligi aniqlandi.

Maqolada lingvistik, ekstralingvistik, madaniy va intertekstual kontekst turlarining so‘z ma’nosini aniqlashdagi roli yoritilib, kontekst so‘zning semantik aniqligi va pragmatik yo‘naltirilganligini ta’minlovchi muhim omil ekanligi ko‘rsatib berildi. Ayniqsa, ko‘pma’noli so‘zlar misolida sinonimik va antonimik testlar orqali kontekstning ma’no tanlashdagi hal qiluvchi ahamiyati asoslandi. Keltirilgan misollar shuni ko‘rsatadiki, bir xil so‘z shakli turli kontekstlarda turlicha semantik mazmun kasb etadi va bu holat tilning semantik moslashuvchanligini namoyon etadi.

Shuningdek, so‘z ma’nosining kontekstual modulyatsiyasi masalasi alohida e’tiborga olinib, kontekst nafaqat ma’noning tanlanishiga, balki uning ayrim semantik belgilarining kuchayishi yoki susayishiga ham ta’sir ko‘rsatishi asoslab

ISSN 3030-3907

berildi. Lug‘aviy va kontekstual ma’no o‘rtasidagi farqlar tahlili so‘z ma’nosining nutqda yuzaga chiqish mexanizmini yanada aniqlashtirdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, so‘z ma’nosini kontekst asosida aniqlash masalasi nafaqat nazariy tilshunoslik, balki tarjimashunoslik, matn tahlili, axborot qidiruvi, sun’iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash sohalari uchun ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Xususan, Word Sense Disambiguation (WSD) muammosini hal etishda kontekstual yondashuvlar asosiy ilmiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kontekst so‘z ma’nosini anglashning ajralmas va hal qiluvchi omili bo‘lib, uni hisobga olmasdan til birliklarining semantik tabiatini to‘liq ochib berish mumkin emas. Mazkur tadqiqot kelgusida kontekstual semantika, kognitiv tilshunoslik hamda kompyuter lingvistikasi yo‘nalishlarida olib boriladigan izlanishlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh. Rahmatullayev. O‘zbek tilining leksikologiyasi. Toshkent: Universitet, 2004.
2. N. Mahmudov. Til va nutq. Toshkent: Fan, 2010.
3. J.R. Firth. Papers in Linguistics. London: Oxford University Press, 1957.
4. J. Lyons. Semantics. Cambridge: Cambridge University Press, 1977.
5. M. Abeysiriwardana, D. Sumanathilaka. A Survey on Lexical Ambiguity Detection and Word Sense Disambiguation, 2024.
6. Word Sense Disambiguation Studio: A Flexible System for WSD Feature Extraction – G. Agre, D. Petrov, S. Keskinova, Information 2019.
7. Word Sense Disambiguation: Towards Interactive Context Exploitation — Ming Wang, Yinglin Wang, ACL 2021. aclanthology.org

ISSN 3030-3907